

## ARASTUNING “AXLOQI KABIR” ASARINING AXLOQIY VA MA’NAVIY AHAMIYATI: BAXT-SAODAT, FAZILAT VA O’RTACHA YO‘L NAZARIYALARINING TAHLILI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-200-203>

**Baxrov Eldorbek**

*TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti,  
Falsafa ta’lim yo’nalishi 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola qadimgi yunon faylasufi Arastuning “Axloqi Kabir” asariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda inson axloqi, fazilat, baxt-saodat va o‘rtacha yo‘l nazariyasi tahlil qilinadi. Asarda ilgari surilgan asosiy axloqiy kategoriyalar—adolat, jasorat, saxiylik va donolik tushunchalari yoritilib, ularning bugungi kundagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, maqolada Arastu ta’limotining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni ham ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** axloq, etika, Arastu, “Axloqi Kabir”, fazilat, baxt, me’yor, amaliy aql, falsafa.

**Annotation:** This article is devoted to the work of the ancient Greek philosopher Aristotle “Ethics Kabir”, which analyzes human ethics, Virtue, Happiness and the theory of the mean path. The main moral categories promoted in the work—the concepts of justice, courage, generosity and wisdom—are illuminated, revealing their significance today. The article also examines the role of the Arastu doctrine in youth education.

**Keywords:** ethics, Ethics, Aristotle, “Ethics like”, Virtue, Happiness, norm, practical intelligence, philosophy.

**Аннотация:** эта статья посвящена работе древнегреческого философа Аристотеля “этика Кабира”, в которой анализируются человеческая мораль, теория добродетели, счастья и среднего пути. В работе освещаются выдвинутые основные моральные категории—понятия справедливости, мужества, щедрости и мудрости, раскрывается их значение и сегодня. В статье также рассматривается роль учения Аристотеля в воспитании молодежи.

**Ключевые слова:** этика, этика, Аристотель, “этика Кабира”, добродетель, счастье, умеренность, практический ум, философия.

Insoniyat tarixi davomida axloq va xulq-atvor masalalari har doim markaziy o‘rinni egallab kelgan. Jamiyatning jipsligi, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar va shaxsning ichki xotirjamligi bevosita axloqiy me’yorlarga tayanadi. Qadimgi Yunonistonning buyuk mutafakkiri Arastu o‘zining “Axloqi Kabir” asari bilan ushbu sohada inqilobiy burilish yasadi. Ushbu asar nafaqat g‘arb falsafasining, balki butun insoniyat ma’naviy merosning eng yirik durdonalaridan biri hisoblanadi. Arastu axloqi

shunchaki qoidalar to‘plami emas, balki insonni baxtga yetaklovchi amaliy fan sifatida talqin etadi. Ushbu maqolaning maqsadi — Arastuning baxt, fazilat va oltin o‘rtaliq nazariyalarini tahlil qilish, ularning zamonaviy axloqshunoslikdagi o‘rnini ko‘rsatish va Sharq mutafakkirlari bilan qiyosiy tahlil o‘tkazishdir. Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi: “Axloqi Kabir” matnini qiyosiy-tarixiy tahlil qilish; Arastu va Sharq mutafakkirlari — Forobiy, Ibn Sino, G‘azzoliy hamda o‘zbek ma‘rifatparvari Abdulla Avloniy asarlarini qiyoslash; zamonaviy axloqshunoslik adabiyotlarini o‘rganish orqali Arastu g‘oyalarining dolzarbligini baholash. Maqola uchun birlamchi manba sifatida Arastuning “Axloqi Kabir” asari qo‘llanildi.

Arastu falsafasida baxt — tushunchasi markaziy o‘rin tutadi. U baxtni shunchaki vaqtinchalik zavq-shavq yoki boylik bilan o‘lchamaydi. Faylasufning ta‘kidlashicha: “Baxt — bu ruhning fazilatga muvofiq faoliyatidir”<sup>1</sup>. Bu iqtibos shuni anglatadiki, haqiqiy baxtga faqatgina fazilatli hayot kechirish orqali erishish mumkin. Arastu baxtni insonning o‘z tabiatiga xos bo‘lib, eng oliy qobiliyatini—aqlini ishlatishi bilan bog‘laydi. “Arastu uchun yashashning maqsadi ham, vositasi ham oqilona hayot kechirishdir”<sup>2</sup>.

Arastu axloqning eng mashhur va amaliy jihati bu “oltin o‘rtaliq”—nazariyasidir. Faylasuf har bir fazilatni ikki chekka illat—me‘yordan oshib ketish va yetishmaslik o‘rtasidagi muvozanat deb hisoblaydi. “Axloqi Kabir” asarida keltirilgan asosiy fazilatlar va ularning oltin o‘rtaliq holatlari:

Fazilat	Yetishmaslik (Illat)	Oshib ketish (Illat)
Botirlik	Qo‘rqoqlik	Telbalarcha jasorat
Saxiylik	Ziqnalik (Xasislik)	Isrofgarchilik
Kamtarlik	Tortinchoqlik	Uyatsizlik
Oliyjanoblik	Xokisorlik (G‘ariblik)	Maqtanchoqlik (Manmanlik)
Oqillik	Loqaydlik (Hissizlik)	Hirs (Ehtirosiga berilish)

“Saxiylik - isrofgarchilik va ziqnalik, xasislik o‘rtasidagi sifatdir”<sup>3</sup>. Bu tamoyil inson hayotining barcha jabhalarida muvozanatni saqlash naqadar muhimligini ko‘rsatadi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham ushbu g‘oya yuqori baholanadi: “Oltin o‘rtaliq tamoyili insonning ijtimoiy va shaxsiy hayotida barqarorlikni ta‘minlovchi asosiy mexanizimdir”.<sup>4</sup> “Oliyjanoblik—maqtanchoqlik, manmanlik va xokisorlik, g‘ariblikning o‘rtasidagi xislatdir”.

Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida Arastuning baxt va fazilat haqidagi g‘oyalarini ijtimoiy-siyosiy darajaga ko‘tardi: “Inson o‘z tabiatiga ko‘ra baxtga intiladi, lekin una erishish uchun jamoaviy hamkorlik va axloqiy poklik zarur”.<sup>5</sup> Ibn Sino ham o‘zining axloqiy risolalarida Arastu an‘analarini davom ettirdi: “Ruhning sog‘lomligi uning fazilatlar bilan bezalganligidir”.<sup>6</sup> XX asr boshidagi o‘zbek

<sup>1</sup> Arastu “Axloqi Kabir”

<sup>2</sup> Annas Julia “Baxtning axloqiyati”

<sup>3</sup> Arastu “Axloqi Kabir”

<sup>4</sup> Hardie “Arastuning axloqiy nazaryasi”

<sup>5</sup> Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri”

<sup>6</sup> Ibn Sino “Kitob al-Najot”

ma’rifatparvari Abdulla Avloniy ham o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida Arastu g‘oyalaridan bilvosita foydalangan. Avloniy saxiylikni “insoniyatning ziynati” deb ataydi, bu esa Arastuning saxiylik haqidagi qarashlari bilan tamomila hamohangdir.

Arastu nafaqat fazilatlarni, balki insonni tubanlik yetaklovchi illatlarni ham chuqur tahlil qililadi. Ochko‘zlik haqida yunon faylasufi Suqrot shunday degan edi: Hech kim yovuzlik nimaligini bilib turib, o‘ziga yomonlikni ravo ko‘rmaydi. Ochko‘z odam esa shu narsaning yomonligini biladi, ammo xirsiga berilib, shu yomonlikni tanlaydi. “Axloqi Kabir” asarining katta qismi adolat va do‘stlik masalalariga bag‘ishlangan. Arastu adolatni barcha fazilatlarning yig‘indisi deb hisoblaydi. U adolatni ikki turga ajratadi: taqsimlovchi adolat va tuzatuvchi adolat. Taqsimlovchi adolat jamiyatdagi boylik va imtiyozlarning har bir kishining xizmatiga qarab taqsimlanishini anglatadi. Tuzatuvchi adolat esa buzilgan huquqlarni tiklash va adolatsizlikni bartaraf etishga qaratilgan. Arastu fikricha, adolatli inson qonunlarga rioya qiluvchi va boshqalarning huquqlarini hurmat qiluvchi shaxsdir. Do‘stlik masalasida Arastu uch xil do‘stlikni farqlaydi: 1. ”Foydali do‘stlik” Insonlar bir-biridan qandaydir manfaat ko‘zlab do‘st bo‘ladilar. 2. ”Zavqli do‘stlik” Insonlar bir-birining suhbatidan yoki birgalikdagi faoliyatidan zavq olganlari uchun do‘st bo‘ladilar. 3. ”Fazilatli do‘stlik” Bu eng oliy do‘stlik turi bo‘lib, unda insonlar bir-birining fazilatlari va ezgu xislatlari uchun do‘st bo‘ladilar. Arastu ta’kidlaganidek: ”Axloqli kishi hatto o‘z hayotidan ayrilgan taqdirida ham do‘stlari va vatani uchun ko‘p ishlarni qiladi” . Fazilatli do‘stlik barqaror va uzoq davom etadi, chunki u o‘zgarmas qadriyatlarga tayanadi.

Arastu do‘stlikni hayot uchun eng zarur narsa deb hisoblaydi. “Hech kim barcha boyliklarga ega bo‘lsa-da, do‘stlarsiz yashashni xohlamaydi”, - deydi u. Do‘stlik nafaqat shaxsiy baxt uchun, balki davlatning barqarorligi uchun ham muhimdir. Chunki do‘stlik bor joyda adolatga ehtiyoj kamayadi, lekin adolat bor joyda ham do‘stlikka ehtiyoj qoladi. Fazilatli do‘stlikning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u o‘zaro hurmat va bir-biriga yaxshilik sog‘inishga asoslanadi. Bunday do‘stlar bir-birining fazilatlarini oshirishga yordam beradilar. Arastu aytganidek, “Do‘st - bu ikkinchi mendir”.

Sharq mutafakkirlari Arastu g‘oyalarini Islom dini tamoyillari bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilganlar. Masalan, Islomdagi “vasat” (o‘rtacha yo‘l) tushunchasi Arastuning “oltin o‘rtaliq” tamoyili bilan juda yaqin. Qur’oni Karimda musulmonlar “o‘rtacha ummat” (ummatan vasatan) deb ataladi. Abu Homid al-G‘azzoliy o‘zining “Ihyou ulumid-din” asarida axloqiy fazilatlarni tahlil qilar ekan, Arastu kabi ularni ikki chekka illat o‘rtasidagi muvozanat deb ta’riflaydi. Masalan, saxiylikni isrof va baxillik o‘rtasidagi holat sifatida ko‘rsatadi. Bu esa Arastu merosining nafaqat falsafiy, balki diniy-axloqiy tafakkurga ham qanchalik chuqur kirib borganidan dalolat beradi.

Arastuning “Axloqi Kabir” asari nafaqat qadimgi dunyo, balki bugungi kun uchun ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy axloqshunoslikda “fazilat etikasi” yo‘nalishi aynan Arastu g‘oyalariga tayanadi. Bu yo‘nalish insonning xatti-

harakatlarini shunchaki qoidalar yoki oqibatlar bilan emas, balki uning xarakteri va fazilatlarini bilan baholaydi. Bugungi kunda biznes etikasi, tibbiyot etikasi va hatto sun'iy intellekt etikasi sohalarida ham Arastu tamoyillari qo'llanilmoqda. Masalan, biznesda “saxiylik” va “adolat” tamoyillari korporativ ijtimoiy mas'uliyatning asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Tibbiyotda esa “amaliy aql” shifokorlarga har bir bemor uchun eng to'g'ri qarorni qabul qilishda yordam beradi. Arastu axloqi bizga shuni o'rgatadiki, inson bo'lish - bu shunchaki biologik holat emas, balki ma'naviy vazifadir. Biz o'zimizni tarbiyalash, fazilatlarimizni charxlash va aql-idrokimizni ishlatish orqali haqiqiy inson darajasiga ko'tarilamiz. Bu yo'lda “Axloqi Kabir” asari biz uchun o'chmas bir sham bo'lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, Arastuning ushbu asari insoniyat ma'naviy kamolotining poydevoridir. Undagi har bir fikr, har bir iqtibos bizni chuqur mulohaza yuritishga va o'z hayotimizni yaxshilashga undaydi. Maqolada keltirilgan tahlillar va iqtiboslar shuni ko'rsatadiki, Arastu axloqi - bu barcha zamonlar va barcha insonlar uchun zarur bo'lgan ilmi hikmat durdonasidir. Ushbu durdonani o'rganish va unga amal qilish bizni nafaqat shaxsiy baxtga, balki jamiyatning umumiy farovonligiga ham yetaklaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Arastu “Axloqi Kabir”. Toshkent: “Yangi asr avlodi”.
2. Abu Nasr Forobiy. ”Fozil odamlar shahri”. Toshkent: “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti”.
3. Suqrot hikmatlari. “Ziyouz.com”.